

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI

MIRXOSILOV SHAXZOD MUROD O‘G‘LI

**MOL-MULK SOLIG‘INI HISOBLASH VA
BYUDJETGA TO‘LASH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

**“Soliqlar va soliqqa tortish”
kafedrası mudiri**

i.f.d., professor Jo‘raev A.S. _____

“ _____ ” _____ 2014 y.

Bitiruvchi: Mirxosilov Sh.M. _____

Ilmiy rahbar: i.f.n. Abduraxmonov X. _____

TOSHKENT - 2014

MUNDARIJA

	Betlar
KIRISH	3
I. MOL-MULK SOLIG'INING IQTISODIY MOHIYATI VA BYUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI	9
1.1. Bozor munosabatlari sharoitida mol-mulk solig'ining ob'ektiv zarurligi	9
1.2. Mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati va ularning byudjet daromadlarida tutgan o'rni	18
II. MOL-MULK SOLIG'INI HISOBLASH VA BYUDJETGA TO'LASH TARTIBI TAHLILI (Shayxontohur tuman DSI ma'lumotlari asosida)	23
2.1. Mol-mulk solig'i to'lovchilar tarkibi, soliq ob'ekti va soliqqa tortiladigan bazani aniqlash tartibi	23
2.2. Mol-mulk solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi tahlili	36
III. MOL-MULK SOLIG'INI HISOBLASH VA BYUDJETGA TO'LASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	40
3.1. Mol-mulk solig'ini qo'llashning amaliy muammolari	40
3.2. Mol-mulk solig'i undirishni takomillashtirish yo'nalishlari	45
XULOSA	51
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	56

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, soliqlarning paydo bo'lishi davlat apparatining vujudga kelishi hamda davlatning muhim vazifalarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni ta'minlash borasida yuzaga kelgan. Avvalgi soliqlar natura shaklida undirilgan bo'lsada, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan ular ko'proq pul ko'rinishida undirila boshlangan. Bugungi kunda dunyo davlatlarining yalpi ichki mahsulotining 1/3 qismidan to uning yarmigacha bo'lgan qismi soliqlar hisobiga shakllanishi sir emas. Ushbu yig'ilgan mablag'lar ijtimoiy masalalarni moliyalashtirish, davlat iqtisodiyotini tartibga solish, mudofaa va tartibni saqlash masalalariga qaratiladi.

Dunyoning rivojlangan davlatlari davlat byudjetida aholidan undiriladigan soliqlar ustuvorlik qiladi. Lekin rivojlanayotgan davlatlarda, xususan bozor munosabatlariga o'tayotgan davlatlarda davlat byudjeti daromadlarining ko'p qismi korxonalardan olinadigan soliqlar hisobiga shakllanadi. Shu bilan birga, mulkiy soliqlarning salmog'i ham ulardan foydalanish manfaatdorligi oshirish maqsadida oshib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar, eng avvalo, ishlab chiqarish vositalariga egalik masalasiga bevosita daxldorlik kasb etadi. Mazkur vositalardan foydalanish, ularga egalik qilish va ularni tasarruf etishda davlat mulkidan nodavlat mulkchiligining xilma-xil shakllariga o'tish jarayoni bormoqda. Mulkchilik shakllarining turli-tumanligi va muayyan qismining xususiy mulkka erishishi – bu, bozorning tabiiy iqtisodiy negizidir. Mulk hamisha va hamma joyda asosiy bazis masala bo'lib, har qanday jamiyatda u o'ta manfaatdorlik bilan idrok qilingan. Mulkni markazlashtirishdan holi qilish – mustaqil mamlakatlar iqtisodiy hayotining tuzilmasida ro'y beruvchi xuddi shunday jarayonlar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langandir.

Hozirda soliq munosabatlarini takomillashtirish, soliqlarning iqtisodiy sub'ektlarga ta'sirini oshirib borish, soliq tizimini yanada erkinlashtirib borish

muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz I.A.Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining ma'ruzasida ta'kidlaganlaridek, "...Iqtisodiyotimizning 2014 yilga mo'ljallangan asosiy vazifa va ustuvor yo'nalishlari avvalo bu sohaningyuqori sur'atlar bilan o'sib borishini ta'minlash, buning uchun mavjud barcha rezerv va imkoniyatlarni safarbar etish borasida qabul qilingan strategiyani davom ettirishga qaratilgan.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.

O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir.

2013 yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi.

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar yuqori darajada saqlanib qoldi va umumiy xarajatlarning 59,3 foizini tashkil etdi.

Yurtimizda qabul qilingan 2011-2015 yillarda sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida sanoat tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar tayyorlayotgan qayta ishlash tarmoqlarining o'zni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan

sanoat mahsulotlarining 78 foizdan ortig'i aynan ana shu tarmoqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2013 yilda yuqori texnologiyalarga asoslangan mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati 121 foizga, qurilish materiallari sanoati 113,6 foizga, engil sanoat 113 foizga va oziq-ovqat sanoati 109 foizga o'sgani misolida buni yaqqol ko'rish mumkin"¹.

Chunonchi, bozor munosabatlarining takomillashtirib borishda soliq munosabatlarini takomillashtirish juda qiyin hamda murakkab masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bozor sharoitida mol-mulk solig'i korxonalarning ishlab chiqarishdagi moddiy qimmatliklardan samarali foydalanishi hamda jismoniy shaxslarning mavjud mulklaridan samalari foydalanish maqsadida kiritilgan. Ushbu soliq turi davlat byudjeti asosiy daromad manbasi sifatida qaralmasada, (chunki rivojlanishning hozirgi davrida egri soliqlar, xususan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz soliqlari, to'g'ri soliqlardan jismoniy shaxslar daromad solig'i va foyda solig'i asosiy daromad manbalari hisoblanadi), mol-mulk solig'i mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini stabil shakllantiruvchi, shuningdek korxonalar xo'jalik faoliyati natijalaridan bog'liq bo'lmagan soliqlardan ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida bo'layotgan tub o'zgarishlar soliq tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblangan mol-mulk solig'ini ham takomillashtirishni talab etmoqda. Shuningdek, ushbu soliq turi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida faqatgina davlat byudjetini mablag' bilan ta'minlash vazifasini bajaribgina qolmay, soliq to'lovchining o'zini mulkdor deb xis qilishga ta'sir ko'rsatuvchi omil vazifasini ham bajaradi va moddiy jihatdan ta'minlashga imkon beradi.

Mavzu doirasida mol-mulk solig'ini hisoblanishi va byudjetga undirish mexanizmining nazariy jihatdan etarli darajada o'rganilmaganligi amaliyotda ulardan foydalanish samaradorligiga o'z ta'siri o'tkazmay qolmaydi. Iqtisodiy jihatdan olib qaraganda, mol-mulk bir jismoniy yoki yuridik shaxsning ma'lum

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 18.01.2014 <http://uza.uz/oz/politics/30441/>

bir davrda ega bo'lgan boylikariga daxldor barcha iqtisodiy qiymatliklarning puldagi ifodasi hisoblanadi. Bu soliq turi bizning hududlarda qadimdan amal qilib kelayotgan soliqlardan hisoblanadi. Tarixda mol-mulk solig'i "zakot" nomi bilan atalib, uni to'lash uchun musulmon kishining moli nisobga etgan bo'lishi kerak (nisob – boylikning ma'lum darajaga etishi).

Mol-mulk solig'i mulkiy soliqqa tortish tizimida markaziy o'rin tutadi va soliqni hisoblash va undirish tartibidagi o'zgarishlarning qo'llanilishi ma'lum qiziqish uyg'otadi. Shuningdek, ushbu soliq turi yuridik va jismoniy shaxslarning ma'lum bir davrda ega bo'lgan, qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan mulklarini to'la yoki ma'lum bir qismini qiymatidan olinadigan to'g'ri soliqdir. Mol-mulk solig'i mahalliy byudjetlar daromad bazasini shakllantiruvchi asosiy soliqlardan biri hisoblanadi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishning predmeti bo'lib, davlat byudjeti hamda soliq to'lovchi o'rtasidagi mulkiy soliqlarni undirish borasidagi soliq munosabatlari, xususan joylardagi davlat soliq organlari bilan aniq soliq to'lovchi o'rtasidagi soliq munosabatlari xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib, aytish mumkinki, mol-mulk solig'ini hisoblash va to'lash mexanizmini o'rganish, undagi muammolar va ularni oldini olish borasidagi mulohazalar bildirish mazkur bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti va predmeti. Mol-mulk solig'ining amaldagi mexanizmi va uni amalga oshirishni ta'minlash omillari bitiruv malakaviy ishi ob'ekti hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar bilan davlat byudjeti o'rtasida soliqlarni undirish xususida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar bitiruv malakaviy ishining predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Respublikamiz soliq tizimida amalda bo'lgan mol-mulk solig'ining amal qilish mexanizmini tahlil qilish va shu asosda mavjud bo'lgan muammolarni, kamchiliklarni aniqlash va soliqlarning bir vaqtning o'zida davlat byudjetining daromadlarini

shakllantirishi borasida va soliq to'lovchi sub'ektlar manfaatlarigi maqbul keluvchi mexanizmini ishlab chiqish va takomillashtirish yo'nalishlarini belgilashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi:

- Davlat byudjeti daromadlari tarkibida mol-mulk solig'ining mohiyati va uning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish;
- Byudjet daromadlarini shakllantirishda mol-mulk solig'ining ahamiyatini tahlil qilish;
- Mol-mulk solig'i to'lovchilari, soliq ob'ekti va soliq bazasini aniqlash tartibini o'rganish;
- Mol-mulk solig'ining stavkasi va imtiyozlarni tahlil qilish;
- Mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni byudjetga to'lash tartibini tahlil qilish;
- Mol-mulk solig'ining amaliy muammolarini o'rganish;
- Davlat byudjeti daromadlarida mol-mulk solig'ini undirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilash.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslab berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati, ahamiyati va byudjet daromadlarida tutgan o'rni izohlanadi.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida mol-mulk solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash mexanizmi tahlil qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobida mol-mulk solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash mexanizmidagi muammolar va ularni takomillashtirish yo'llari atroflicha o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida mol-mulk solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan xulosalar bayon qilinib, taklif va tavsiyalar umumlashtirilgan.

I-BOB. MOL-MULK SOLIG'INING IQTISODIY MOHIYATI VA BYUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

1.1. Bozor munosabatlari sharoitida mol-mulk solig'ining ob'ektiv zarurligi

O'zbekistonda erkin demokratik davlat qurish yo'lida borilayotgan bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli ishlarni amalga oshirishda avvalambor soliq siyosatini yanada takomillashtirish, soliqlarning turlari va ularning amal qilish mexanizmini tobora soddalashtirib borish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliq tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini samaradorligini oshirish, shu jumladan soliq tizimini yanada erkinlashtirish masalalari aslohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada birinchi ustuvor yo'nalish sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov quyidagilarni alohida ta'kidlagan edi: "Iqtisodiyotning barqaror va mutanosib sur'atlarda o'sishi hamda tarkibiy o'zgarishlar va modernizatsiyalashni ta'minlash, uning eng muhim tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash soliq siyosatini yanada erkinlashtirishdan iborat"².

Demak, rivojlanishning bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda soliq siyosati va soliq tizimini takomillashtirib borish zaruriy vazifalardan hisoblanadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar xo'jalik faoliyati doirasida mol-mulkdan imkon qadar samarali va unumli foydalanishga intilishlari lozim. Davlat soliq to'lovchilar ixtiyorida bo'lgan mulkdan to'g'ri va samarali ishlatish borasida soliqlar yordamida ta'sir ko'rsatib, ularda mavjud mol-mulkdan soliq olish yo'li bilan ham fiskal va shu bilan birga, tartibga soluvchi dastaklardan ham foydalanadi.

² Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir.

Bozor iqtisodiyoti amal qiladigan davlatlarning qonunchiligida mulk munosabatlarini xarakterlovchi huquqiy me'yorlarga nisbatan katta e'tibor beriladi. Iqtisodchi olimlar va amaliyotchilar tomonidan berilgan ta'rifda, bu me'yorlar mulk ob'ektlariga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish tushunchalari bilan izohlanadi.

Mulk ob'ekti uning egasining talab ehtiyojlarini qondirish maqsadida xizmat qiladi. Shunday murakkab holatlar bo'ladiki, ularda ehtiyojlar ishlab chiqarish faoliyati orqali qondirilib, asosiy omillar (ishlab chiqarish vositalari, yer, sarmoya, texnologik bilimlar va hokazo) mulkdorlar tomonidan o'zlashtiriladi. Bu narsa ularga aholi qolgan qismining ehtiyojlarini tartibga solish imkonini beradi, odamlarni esa mulkdorlarning mafaatlari yo'lida mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga undaydi. Har qanday jamiyatda ijtimoiy sub'ektning ehtiyojlarini qondirish imkoniyati uning boshqa ijtimoiy sub'ektlarga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir, bunda ularning munosabatlar tizimida tutgan haqiqiy mavqeidan kelib chiqiladiki, mulk munosabatlari ularning asosiysi hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda ijtimoiy sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlar negizini ulardan har birining o'z manfaatlarini yagona siyosiy-iqtisodiy tizim doirasida ro'yobga chiqarishga intilishi tashkil etadi. Ushbu negiz ularning faoliyatini barcha sub'ektlarini ijtimoiy-iqtisodiy maqomini saqlab qolish va manfaatlar kelishuvi asosida bir butun qilib birlashtiradi. Shundan kelib chiqib, mulk huquqi davlat muhofazasida bo'lmagunicha o'zini to'la namoyon qilmaydi.

Bu o'rinda jamiyatda ishlab chiqarish vositalariga egali qiluvchi shaxslardan tashkil qiluvchi mulkdorlar sinfi bozor munosabatlarida asosiy o'rin egallaydi. Shuning uchun mulkdorlar sinfini tadqiq qilish ushbu guruhga kiruvchilarning tarkibiy tuzilmasi va uning o'zgarish tendentsiyasini o'rganish va shu asosda tegishli xulosalar chiqarishni taqozo etadi.

Mulkdor tasarrufidagi mol-mulkini xo'jalik yuritish maqsadida to'la to'kis boshqa shaxslarga berishi mumkin, bunda mulkni tasarruf qilish

hamda xo'jalik faoliyati natijasida olingan daromadni taqsimlash tartibini belgilaydi. Mulkdor o'z mol-mulki darajasida soliq va kredit majburiyatlari, imzolangan shartnomalar ijrosi uchun, boshqa sub'ektlarning mulkiy huquqlari buzilganligi, mehnatning xavfsizlik shartlariga rioya etilmaganligi, odamlar sog'ligiga zarar keltiruvchi mahsulotlarni sotganlik, atrof muhitni ifloslantirganlik, shuningdek, monopoliyaga qarshi qonunlar buzilganligi uchun javob beradi.

Ma'lumki, mamlakatimizda qonuniy tomondan ruxsat etilgan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda mulkdorlarga o'z mol-mulklaridan foydalanishda, xo'jalik faoliyatini tashkil etish va uning natijalarini taqsimlashda to'la erkinlik berilgan. Bugungi kunda mehnatning moddiy va intellektual qurollari rivojlanib borishi bilan fuqarolar tomonidan borgan sari ishlab chiqaruvchi mulkdorlar sinfiga aylanish imkoniyati paydo bo'layotganligi ayniqsa muhimdir.

Bozor munosabatlari qanchalik chuqur ildiz otsa, mulkdorlar sinfi ham borgan sari ko'proq ijtimoiy masalalarda bevosita ishtirok etishi kuzatiladi, shuningdek mehnatga layoqatli har bir kishi uchun o'zining iqtisodiy faoliyatini yuritishi, har bir shaxs o'z iste'dodini namoyon qilishi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Shu o'rinda, mol-mulk solig'iga iqtisodiy ta'rif berib o'tilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Mol-mulk solig'i deganda, soliq to'lovchi tomonidan davlat byudjetiga mol-mulkni soliqqa tortish haqidagi qonunlarga asosan to'lanadigan majburiy to'lov tushuniladi. Bu sohadagi qonun-qoidalari soliq to'lovchilarning, ularga zarar etkazilganda, mulkiy himoya qilish, byudjet manfaatlarini, soliq qonunchiligini buzuvchi soliq to'lovchilarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlaridan muxofaza etish maqsadida joriy etiladi. Bu soliqdan ayniqsa, korxonalarning amaliy faolligini va asosiy fondlardan samarali foydalanishni tartibga solib turuvchi dastak sifatida foydalaniladi. Amalda mol-mulk solig'ini qo'llanishi korxonani ishlab chiqarish fondlaridan yanada samaraliroq foydalanishga da'vat qiladi; sarmoyalarning samarasi kam bo'lgan sohalardan

ko'p samara beradigan sohalarga oqib o'tishiga ko'maklashadi. Nega deganda, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxona ishlab chiqarish faoliyati natijalaridan manfaatdor bo'lishi zarur, ushbu soliq turi esa eskirgan uskunalarni tezroq almashtirishga rag'bat uyg'otadi.

Shu bilan birga, ushbu soliq turi mavjud ishlab chiqarishni ektensiv tarzda kengaytirishni cheklab turish vazifasini hal qilishda ham samarali ta'sir quroli hisoblanadi. Ma'lumki, ayrim sabablarga ko'ra, soliq to'lovchilarning daromadlarining bir qismi soliqqa tortilmasligi va shu orqali soliqdan yashirish holati vujudga kelishi mumkin. Lekin, ushbu noqonuniy daromad moddiy boylik ko'rinishini olgach, mol-mulk solig'iga tortilmasdan iloji yo'q. Sarmoyalarni soliqqa tortish ulardan faol foydalanishni rag'batlantiradi, ortiqcha zaxiralardan xoli bo'lishga imkon yaratadi, va o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini tashkil topishini jadallashtiradi. O'z-o'zidan soliqning rag'batlantiruvchilik vazifasi kelib chiqib, u ishlab chiqarishda mol-mulkdan samarali foydalanish, asosiy fondlarning foydalanilmaydigan hajmini kamaytirish imkonini beradi.

Aytish lozimki, korxonalarning investitsion faoliyatini rag'batlantirishda mol-mulk solig'i asosiy umumdavlat soliqlari singari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda korxona mol-mulkini soliqqa tortishda asosiy vositalar bozorini rivojlantirish muammosini yuzaga keltirib, mol-mulkni soliqqa tortish tartibini takomillashtirish ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga olib keladi. Agar korxonalarning rentabelligi yuqori bo'lsa, u holda ushbu korxonalar asosiy vositalar bozorida keng ko'lamdagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i stavkasi turar-joylar, imoratlarning texnik inventarizatsiyalanishini amalga oshiradigan davlat organlari tomonidan qayta baholangan qiymatiga nisbatan qo'llaniladi.

Bugungi kunda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda mulkiy soliqlardan tushumlar darajasi salmog'i unchalik katta bo'lmasada, bu soliqlar soliq tizimida o'ziga xos o'rin tutishi bilan izohlanadi. Shuningdek, mol-mulk

solig'i davlat byudjeti daromadlarini stabil ta'minlash bilan birga, daromad va mulk taqsimotida nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Korxonalarining mol-mulkiga solinadigan soliq asosan joylardagi mahalliy byudjetlarning daromad qismini shakllantirib, soliq to'lovlardan undirilgan soliq so'mmasi teng ulushlarda mahalliy byudjetlarga o'tkaziladi. Bugungi kunda soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida mol-mulk solig'ini va boshqa resurs soliqlari stavkalarini oshirib borish va uning o'rniga korxonalar foydasiga nisbatan soliq yukini kamaytirib borish vazifasi qo'yilmoqda. Mazkur nuqtai nazar shunga asoslanadiki, ya'ni mol-mulk egalari mol-mulkka, shu jumladan, asosiy fondlarga soliqlar miqdori oshirilgan vaziyatda ulardan foylanish samaradorligi ham o'sishi kuzatiladi, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarishning o'sishiga olib keladi.


Ma'lumki, mol-mulk solig'ini soliq tizimida joriy qilinishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

- birinchidan, soliqlarni undirishning bosh omili - davlat taqdim etadigan xizmatlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdir. Shunga ko'ra mol-mulk solig'i soliqlar tizimida har bir soliq kabi davlat byudjetining manbai hisoblanadi.
- ikkinchidan, soliqlarni undirish asosan daromad va mol-mulkni taqsimlash singari ijtimoiy vazifalarni ta'minlashga qaratilgan. Bu narsa katta miqdordagi mulkdorlar bilan kichik mulkdorlar mol-mulki o'rtasidagi nomuvofiqligini davlat moliyaviy resurslari bilan ta'minlashidan ko'ra silliqlash imkonini beradi.
- uchinchidan, bozor munosabatlari shart-sharoitlarida mol-mulk solig'ining joriy qilinishi respublika soliq tizimining jahon soliq amaliyotiga yaqinlashuvidan darak beradi.
- to'rtinchidan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishlab chiqarish quvvatlarining iqtisodiy regulyatorini amalda qo'llash, sarmoyaning ko'payishini xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mol-mulkni kam foyda beradigan tarmoqlardan

nisbatan ko'proq foyda beradigan tarmoqlarga o'tishini, mablag' jamg'arilishi va byudjetga to'lovlarning o'z vaqtida tushishini rag'batlantiradi.

- beshinchidan, mahalliy byudjetlarning daromadlariga tushumlarni moliyalashning barqaror manbaiga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Quyidagi chizmada mol-mulk solig'ini joriy qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad va vazifalar belgilab berilgan.




1-chizma. Mol-mulk solig'ini joriy qilish ahamiyati

Mazkur soliqning iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortiladigan mol-mulkdan foydalanish tufayli aniq bir iqtisodiy shart-sharoitlarda olinadigan muayyan o'rtacha daromadning bir qismini byudjetga undirishdir. Bundan soliqning rag'batlantiruvchi vazifasi kelib chiqib, mol-mulkdan ishlab chiqarishda samarali foydalanish, xom-ashyo, materiallarning foydalanilmaydigan zahiralarini, likvidsizlikni va tugallanmagan ishlab chiqarishni hajmini qiskartirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng 1991 yil 15 fevralda «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar

to'g'risida»gi qonunining qabul qilinishi bilan, dastlab soliq tizimida soliqlarning asosiy turlaridan biri bo'lgan mol-mulk solig'i tasdiqlanib, 1992 yil 1 yanvardan boshlab, korxonalarning mol-mulkiga soliq joriy qilindi. Shuningdek, asosiy fondlarni muntazam ravishda qayta baholash 1992 yildan boshlangan bo'lsada, soliqqa tortiladigan baza byudjetga kutilgan daromadlarni keltirmadi. 1993 yil 1 yanvargacha soliq korxonalar ixtiyorida qoladigan daromaddan to'langan bo'lsa, 1993 yilda soliq so'mmasi maxsulot tannarxiga kiradigan xarajatlar ro'yxatiga kiritildi. 1998 yil 1 yanvardan e'tiboran Soliq kodeksi va 381-sonli «Yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomani kuchga kirishi bilan mol-mulk solig'ining soliqqa tortish ob'ekti o'zgarmadi. Korxonalar 1997 yilgacha transport vositalari uchun soliq to'lab kelishdi. 1997 yildan e'tiboran, bir xil soliqqa tortish bazasiga ega soliqlar va to'lovlar: yuridik shaxslar uchun mol-mulkdan va transport vositalaridan olinadigan soliq yagona mol-mulk solig'iga birlashtirildi.

Hozirgi vaqtda mol-mulk solig'ining huquqiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, "Davlat soliq xizmati to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligi bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy xujjatlar hisoblanadi. O'zbekiston soliq tizimida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i to'g'ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko'ra bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq bo'yicha tushumlar summasi to'liq mahalliy budjetlarga tushadi va u budjetning barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi.



2-chizma. Mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati

Mamlakat soliq tizimida mol-mulk solig'ini joriy qilishdan ko'zlangan maqsad *birinchidan*, korxonalar o'zlarining xo'jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg'otish bo'lsa, *ikkinchidan*, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirishdan iborat. Chunki, korxonalarning ma'naviy va jismoniy tomondan eskirgan asosiy vositalarini yangi, ilg'or texnologiya-uskunalar bilan yangilashi ishlab chiqarilayotgan tovarlarning bahosini arzonlashtiradi va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga imkon beradi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq to'lashga majbur qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalar qutilishiga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirishga, mahsulot tannarxini pasaytirishga hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, mol-mulk solig'i daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi.

Mol-mulk solig'ini mohiyatan tushunishda, ushbu soliq turi bo'yicha etakchi iqtisodchi olimlarning fikrlarini o'rganish ayniqsa ahamiyatlidir. Jumladan, buyuk shotland iqtisodchisi A.Smit shunday fikrni bildiradi: "Ham

shahar yer rentasi, ham oddiy yer rentasi- daromadning shunday turiki, bu bilan mulkdor o'z tomonidan hech qanday mehnat yoki tashvishlarsiz ko'p hollarda foydalanishi mumkin. Agar bu daromadlarning bir qismi uning egasidan davlat xarajatlarni qoplash uchun olib qo'yilsa, bu hol sanoatning hech bir tarmog'ida rivojlanishni to'xtatib qo'ya olmaydi. Yillik yer rentasi va butun jamiyatning mehnati haqiqatdan ham aholi ommasining boyligi va daromadi shunday soliq joriy etilgandan keyin ham avval qanday bo'lsa, xuddi shunday xolda qolaveradi. Mana shuning uchun ham shahar yer rentasi va oddiy yer rentasi daromadning shunday shakllaridan bo'lib hisoblanishi mumkinki, bular ularga maxsus soliqni tatbiq etishda boshqalardan ko'ra yaxshiroq bo'ladi».³

«Umumiy mol-mulk solig'i, - deb ta'kidlaydi P. Genzel, - umumiy qoidalariga ko'ra daromad solig'iga qo'shimcha vazifasini o'taydi: maqsad fondlashgan daromad (mol-mulkdan olinadigan)larga erishishdan iboratdir. Mulkdan daromad oluvchi soliq to'laydigan shaxsning daromadga ega bo'lishda ancha ta'minlangan bo'ladi. Garchi vaqtincha daromadsiz mulkka egalik qilish, har xolda sarmoyalashtirishdagi mohiyatga teng daromadga ega bo'lgan aloxida qulay sharoitga daromad egasini etkazadi. har qanday sarmoya, garchi unchalik katta bo'lmasada, soliq to'lashga qobildir, zero kishilar hech qanday sarmoyaga ega bo'lmasdan ham yashashlari mumkin. Mol-mulk solig'i daromad solig'i bilan bir qatorda mavjud bo'lishi mumkin faqat fondlashgan manbani hisobga oluvchi soliq sifatidagina emas... balki o'z asoslariga ko'ra».

Taniqli rus tadqiqotchisi A. Trivus real soliqlarga quyidagicha ta'rif beradi: «Real soliqlar (u yoki bu ob'ekt - yer, korxona, uy, pul tarzidagi sarmoya to'lovchiga ta'luqliligi omili bo'yicha) soliqqa tortiladigan mulkning aniq belgilari bo'yicha aniqlanadi, bu belgilar amalda to'lovga qobillik haqida emas, balki me'yoriy, «taxmin qilinadigan» to'lovga qobillik to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi.»⁴.

³Gorskiy I.V. «Nalogi v rinochnoy ekonomiki, Moskva., 1992, 32-346.

⁴ Trivus A. «Nalogi kak orudie ekonomicheskoy politiki». - Baku: RIO, ASPS 1925.1876.

B.X.Aliev ta'kidlashicha, mahalliy byudjetlar daromad manbalarini to'ldirishda joylardagi hokimiyatlar zimmasiga mol-mulk haqida samarali nazorat o'rnatish, ularning to'liq hisobini yuritish va mulkiy soliqlarni to'liq yig'ilishini ta'minlash, soliq imtiyozlarini berishni baholash vazifasi yuklatiladi⁵.

Mol-mulk soliqlarining barcha turlari uchun umumiylik shuki, soliq miqdori mol-mulkdan foydalanish natijasida olinadigan daromadga emas, balki mol-mulk qiymati yoki xususiyatlariga bog'liq bo'lishi lozim. Soliqqa tortish uchun mol-mulkning muayyan turiga egalik qilish omili asos sanaladi. Chunki, u daromad ortishidan tashqari (ayrim holatlarda va uning yo'qligida) mulk egasiga qator imtiyozlar beradi.

1.2. Davlat byudjeti daromadlari tarkibi va ularda mol-mulk solig'ining tutgan o'rni

Ma'lumki har qanday soliq turida fiskallik xarakteri ko'rinib turadi. Bu o'rinda biz o'rganayotgan mol-mulk solig'i ham istisno emas. Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida O'zbekiston Respublikasi byudjet daromadlari tarkibi va unda soliqlarning salmog'i to'g'risida ma'lumotni keltirib o'tamiz.

Jadval ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash kerakki, davlat tomonidan soliq siyosatida resurs soliqlarining iqtisodiy sub'ektlarga nisbatan rolini oshirish vazifasini quyilganligi, davlat byudjeti daromadlarida mol-mulk solig'i oshib borayotganligi natijasida mazkur soliqdan tushumlarning absolyut summalarda oshib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'ining salmog'i 2011 yilda davlat byudjetida 2308908,7 mln. so'm yoki daromadlardagi ulushi 14,3 foizni tashkil etdi. 2012

⁵ Aliev B.X. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnoe posobie/Pod red.B.X.Alieva. – M.: Finansi i statistika, 2004. – S.269.

yilda mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 2746400,0 mln. so'm yoki 13,3 foizni tashkil etgan.

2013 yilgi ko'rsatkichlarida esa mazkur soliqlarning rolini yanada oshirish

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibi⁶

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil	
	mln.so'm	jami nis-n, %da	mln.so'm	jami nis-n, %da	mln.so'm	jami nis-n, %da
I. Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz - jami	16178563,5	100	20614100,0	100	25104900,0	100
1.To'g'ri soliqlar	4238732,8	26,2	5196400,0	25,2	6583100,0	26,2
1.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	825011,7	5,1	917200,0	4,4	1239000,0	4,9
1.2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxona-laridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar	527481,4	3,3	703500,0	3,4	817300,0	3,3
1.3. Yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar	378360,0	2,3	538500,0	2,6	755100,0	3,0
1.4. Jismoniy shaxslar-dan olinadigan daromad solig'i	1789700,0	11,1	2372700,0	11,5	2769700,0	11,0
1.5. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq	187547,1	1,1	218100,0	1,1	342100,0	1,4
1.6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzil-mani rivojlantirish solig'i	530632,6	3,3	446400,0	2,2	659900,0	2,6
2. Egri soliqlar	8656853,1	53,5	11187800,0	54,3	13039400,0	51,9
2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i	5228773,9	32,3	6784500,0	33,0	7737800,0	30,8
2.2. Aktsiz solig'i	2481794,0	15,3	3115500,0	15,1	3726500,0	14,9
2.3. Bojxona boji	515980,5	3,2	732400,0	3,5	992600,0	3,9
2.4. Ttransport vosita-lariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlat-ganlik uchun olinadigan soliq	430304,7	2,6	555400,0	2,7	582500,0	2,3
3. Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	2308908,7	14,3	2746400,0	13,3	3755500,0	15,0
3.1. Mol-mulk solig'i	490536,2	3,0	642000,0	3,1	831400,0	3,3
3.2. Yer solig'i	346862,9	2,1	446000,0	2,2	646300,0	2,6
3.3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	1409715,0	8,7	1585300,0	7,7	2180100,0	8,7
3.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	61794,6	0,4	73100,0	0,3	97700,0	0,4
4. Ustama foyda solig'i	142314,4	0,8	250000,0	1,2	294500,0	1,2
5. Boshqa daromadlar	831754,5	5,1	1233500,0	6,0	1432400,0	5,7

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlariga ilovalar asosida tayyorlandi

maqsadida uning summasi 3755500.0 mln. so'mni yoki daromadlardagi ulushi 15 foizni tashkil etmoqda. Bundan tashqari, ushbu soliqlarning davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i absolyut summalarda o'sish tendentsiyasiga ega bo'lsada, 2012 yilda uning foizlardagi salmog'i qarayib 1 punktga pasaygan. Lekin 2013 yilda resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i ham absolyut, ham nisbiy ko'rsatkichlarda o'sgan. Bundan tashqari, mol-mulk solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i absolyut ko'rsatkichlarda o'sishga ega, masalan, 2011 yilda 490 536 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda esa 831400,0 mln.so'mni tashkil etgan, soliq tushumining nisbiy ko'rsatkichi 2011 yilda 3,0 foizdan 2013 yilda 3,3 foizga oshib bormoqda.

Soliqdan tushumlarning absolyut va nisbiy ko'rsatkichlarda o'sishining asosiy sababi soliq to'lovchilar ixtiyorida mulkiy soliqlar bazasining o'sishi hamda jismoniy shaxslardan olinadigan mulk soliqlari stavkalarining oshirib borishi bilan izohlanadi.

Mol-mulk solig'ining tuman mahalliy byudjetidagi o'rniga baho berish uchun uchun Toshkent shahri Shayxontohur tumani mahalliy byudjetiga tushumlar haqidagi ma'lumotlarga murojaat qilamiz.

2-jadval

Shayxontohur tumani mahalliy byudjetida soliqli to'lovlar tushumi⁷

№	Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil	
		ming so'm	jami nis-n, %da	ming so'm	jami nis-n, %da	ming so'm	jami nis-n, %da
1.	Jami daromadlar	40041813 5,0	100	584720288, 0	100	931259240, 0	100
2.	To'g'ri soliqlar	14704540 0,0	36,7	206889000, 0	35,3	287481000, 0	30,7
3.	Egri soliqlar	18330580 0,0	45,8	302462000, 0	51,7	429725000, 0	46,1
4.	Mol-mulk solig'i va resurs To'lovlari	26201790, 0	6,5	34242000,0	5,8	48261000,0	5,1
5.	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	12452068, 0	3,1	21627800,0	2,9	64233830,0	6,9
6.	Boshqa daromadlar	31633029, 9	7,9	22219400,0	3,8	102438490, 0	11,2

⁷ Shayxontohur tuman DSI hisobot ma'lumotlari asosida

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Shayxontohur tumani mahalliy byudjeti daromadlar qismini shakllantirishda mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari alohida ahamiyatga ega. Jumladan, ushbu soliqlarning tuman byudjeti daromadlar tushumidagi salmog'i 2011 yilda 6,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib 5,8 foizni va 2013 yilda 5,1 foizni tashkil qilmoqda. Bu esa, 2011 yilga nisbatan qaraganda 2013 yilda 1,4 punktga kamaygan.

3-jadval

Shayxontohur tumani mahalliy byudjetida mol-mulk solig'idan tushumlar tarkibi⁸

№	Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil	
		ming so'm	jami nis-n, %da	ming so'm	jami nis-n, %da	ming so'm	jami nis-n, %da
1.	Jami daromadlar	400418135.0	100	584720288,0	100	931259240,0	100
2.	Mol-mulk solig'i	21219700,0	5,2	27787400,0	4,7	41234964,0	4,4
	Yuridik shaxslardan	18667300,0	88,0	23897164,0	86,0	36286800,0	88,4
	Jismoniy shaxslardan	2552400,0	12,0	3891000,0	14,0	4783413,0	11,6

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan izohlash mumkinki, mol-mulk solig'i tushum summasining absolyut miqdorlari yillar bo'yicha ortgan bo'lsada, foizda esa bu ko'rsatkich kamayish tendentsiyasiga ega. Jumladan, 2011 yilda bu miqdor 5,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilga borib 4,4 foizni tashkil etmoqda. Shuningdek, ham yuridik, ham jismoniy shaxslarning mol-mulk soliqlarida absolyut o'sish kuzatilmoqda.

Mol-mulk solig'ining davlat byudjetiga tushishi darajasiga bir necha omillarning ta'siri mavjud. Bu omillarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- asosiy vositalarning ishlab chiqarish jarayoniga kiritilishi va chiqarilishi, shuningdek ularni qayta baholanishi;
- asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi;
- asosiy vositalar amortizatsiyasi;

⁸ Shayxontohur tuman DSI hisobot ma'lumotlari asosida

- ayrim kam samarali soliq imtiyozlarining bekor qilinishi.

Bundan tashqari, byudjet daromadlaridagi mulkiy soliqlar potentsialining zaxiralarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bularga quyidagilar qiradi:

1. xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy o'sishi va investitsion faolligini oshirilishi;
2. korxonalar asosiy kapitalini moliyalashtirish uchun jalb qilinadigan xorijiy investitsiyalar hajmini qo'paytirib borish;
3. mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlarni to'liq va o'z vaqtida mahalliy byudjetlarga yo'naltirilishini va bu borada boqimandalarga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'rish.

Mol-mulk solig'ining umumiy jihat va o'ziga xos tomonlari sifatida quyidagilarni keltirsa bo'ladi:

- mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyatini o'rganishda birinchi navbatda uning fiskal xarakterini alohida ahamiyat kasb etishi;
- xususan ushbu soliqning mahalliy byudjet daromadlarining asosiy unsuri ekanligi;
- mulkiy soliqlar potentsialini zaxiralarini va mol-mulk solig'i amal qilish mexanizmini alohida ahamiyatga egaligi;
- asosiy vositalardan va mulkiy resurslardan maqsadli va unumli foydalanishda mol-mulk solig'ining ahamiyati kattaligi;
- qonuniy hujjatlarda belgilangan mol-mulk solig'ini hisoblash va bu soliq turi bo'yicha berilgan imtiyozlardan foydalangan holda amalga oshirilishi.

II-BOB. MOL-MULK SOLIG'INI HISOBLASH VA BYUDJETGA TO'LASH TARTIBI TAHLILI (Shayxontohur tuman DSI ma'lumotlari asosida)

2.1. Mol-mulk solig'i to'lovchilar tarkibi, soliq ob'ekti va soliqqa tortiladigan bazani aniqlash tartibi

Soliq to'lovchilar tarkibi, soliq ob'ekti va soliqqa tortiladigan bazani aniqlash soliq sub'ektlari nuqtai nazaridan yondashgan holda amalga oshiramiz. Shuning uchun birinchi navbatda yuridik shaxslar mol-mulk solig'iga e'tibor qaratsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasida 1991 yil 15 fevraldagi "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi Qonuni asosida joriy etilgan. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2002 yil 22 yanvardagi 25, 2002-13-son qarori bilan tasdiqlangan "Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida" yo'riqnoma asosida tartibga solib turiladi.

Amaldagi Soliq kodeksining 47-bobi yuridik shaxslar mol-mulk solig'iga bag'ishlangan. Unga ko'ra, soliqni to'lovchilar tarkibiga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining norezidentlaridir. Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, shu shaxs soliq to'lovchi hisoblanadi.

Quyidagilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, amaldagi tartibga asosan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilardir;

- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Soliq kodeksiga ko'ra, quyidagi mol-mulk soliq solish ob'ekti hisoblanadi:

1) asosiy vositalar, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar;

2) tugallanmagan qurilish ob'ektlari. Tugallanmagan qurilish ob'ektlari jumlasiga muayyan qurilish ob'ektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, qurilish boshlanganidan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan ob'ektlar kiradi;

3) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar. Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar jumlasiga montaj qilinishi talab etiladigan hamda rekonstruktsiya va (yoki) modernizatsiya qilinayotgan ob'ektlarda loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan muddatlarga muvofiq kapital qo'yilmalar hisobiga ishga tushiriladigan asbob-uskunalar kiradi. Loyiha-smeta hujjatlarida asbob-uskunalarni ishga tushirish muddatlari bo'lmagan taqdirda, buyurtmachi sifatida ish ko'rayotgan yuridik shaxsning rahbari tomonidan tasdiqlangan muddatlar soliq solish ob'ektini belgilash uchun qabul qilinadi, lekin bu muddatlar asbob-uskunalar montaj qilishga topshirilgan paytdan e'tiboran bir yildan ko'p bo'lmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun quyidagilar soliq solish ob'ektidir:

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq qaysi asosiy vositalar bo'yicha hisob yuritayotgan bo'lsa, o'sha asosiy vositalar;

ushbu doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, mazkur norezidentlarga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, ularga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk soliq solish ob'ektidir. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ O'zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan mulk qilib olingan (realizatsiya qilingan) ko'chmas mulk ob'ekti to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu ob'ektlar joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Yuridik shaxslar mol-mulk solig'ining soliq solinadigan bazasi quyidagilardir:

- asosiy vositalar bo'yicha — asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

- normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha — tugallanmagan qurilishning va o'rnatilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati.

Soliq solish ob'ektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'ektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\begin{array}{l} \text{O'rtacha} \\ \text{yillik qoldiq} \\ \text{qiymati} \end{array} = \frac{31 \text{ yanvar} + 28 (29) \text{ fevral} + \dots + 30 \text{ noyabr} + 31 \text{ dekabr}}{12}$$

Bu borada korxona tomonidan o'zining filiali balansiga berilgan mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati quyidagi tartibda hisoblanadi:

4-jadval

“Madad” korxonasida mol-mulk solig’ining

2013 yil olti oylik bazasi hisob-kitobi⁹

Sana	“Madad” korxonasi	“Madad” korxonasining filiali	Jami
31.01.2013	10 350 000		
28.02.2013	14 540 000		
31.03.2013	20 200 000		
30.04.2013	18 530 000	6 250 000	
31.05.2013	16 860 000	5 100 000	
31.06.2013	16 000 000	4 000 000	

1) korxonaning 2013 yil 1-choragi uchun o'rtacha yillik qoldiq qiymati quyidagicha $(10350000+14540000+20200000):12= 3\,757\,500$ so'm;

2) Shu davr uchun mol-mulk solig’ining joriy to’lovlari $3\,757\,500 \times 3,5\% = 131\,512$ so'mni tashkil etadi.

Mol-mulk solig’i hisoblab chiqarilayotganida soliq solinadigan baza quyidagilarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga kamaytiriladi:


- soliq to'lovchining balansida bo'lgan uy-joy-kommunal va ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlarining;
- tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadida va yong'inga qarshi xavfsizlik uchun foydalaniladigan ob'ektlarning;
- umumiy foydalanishdagi temir yo'llar va avtomobil yo'llari, magistral truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalarining, shuningdek ushbu ob'ektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarning;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra to'xtatib qo'yilgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;
- shahar yo'lovchilar transportining (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari), shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashiydigan

⁹ Shayxontohur tuman DSI ma'lumotlari asosida

umumiy foydalanishdagi avtomobil transportining (taksi, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari);

- lizingga olingan mol-mulkning, lizing shartnomasining amal qilish muddatiga.

2011-2014 yillar davomida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilangan:



1-diagramma

Bundan tashqari, eksport qiluvchi korxonalar uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrdagi PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatida keltirilgan xom ashyo mahsulotlaridan tashqari, o'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlarining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'i nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi eksporti tashkil qiladigan ulush:

- umumiy realizatsiya hajmida 15 foizdan 30 foizgacha bo'lganda belgilangan stavka 30% ga pasaytiriladi;

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda PQ-2099-son qarori.

- umumiy realizatsiya hajmida 30 foiz va undan yuqori bo'lganda belgilangan stavka 50% ga pasaytiriladi.

Belgilangan (me'yoriy) muddatlarda ishga tushirilmagan, tugallanmagan qurilish va uskunalar qiymatiga pasaytirilgan stavkalar qo'llanilmaydi. Me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig'i ikki baravar miqdorida to'lanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlardan quyidagilar ozod qilinadi:

1) sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy ta'minot, ta'lim, madaniyat va san'at tashkilotlari;

2) uy-joy-kommunal xo'jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligi korxonalari. Uy-joy-kommunal va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaliklari jumlasiga uy-joy fondini bevosita boshqarish, saqlash hamda undan foydalanishni amalga oshiruvchi tashkilotlar, sanitariya tozalash va yig'ishtirish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, shaharlar hamda shaharchalarni tashqi yoritish, vodoprovod suv olish inshootlaridan, taqsimlanadigan tarmoqlardan (tozalovchi inshootlari bilan) foydalanish va suvni taqsimlash, kanalizatsiya tarmoqlaridan foydalanish (tozalash inshootlari bilan), gaz taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish hamda gazni taqsimlash, qozonxona, issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish va kommunal-maishiy ehtiyojlarga hamda aholiga issiqlikni taqsimlashni bevosita amalga oshiruvchi tashkilotlar, xizmat binolarining xo'jalik boshqarmalari, o't o'chirish komandalari, uy-joy-kommunal xo'jaligining xo'jalik boshqarmalari, uy-joy-kommunal xo'jaligi va shahar xo'jaligining umumfuqaroviy ahamiyatga molik boshqa korxonalari kiradi;

4) yangi tashkil etilgan korxonalar — davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida.

Mazkur imtiyoz qayta tashkil etilgan yuridik shaxslar negizida tashkil etilgan korxonalarga, shuningdek boshqa korxonalar hududida shu

korxonalardan ijaraga olingan asbob-uskunalaridan foydalangan holda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi;

5) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini — yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran.

Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalangan holda faoliyat yuritayotgan "Madad" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 2013 yil uchun mol-mulk solig'i hisob-kitobini tahlil etamiz.

4-jadval

"Qamxar" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 2014 yil uchun mol-mulk solig'i hisob-kitobi¹¹

No	Ko'rsatkichlar	To'lovchining ma'lumotlari bo'yicha
1.	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning hisobot davri uchun o'rtacha qoldiq qiymati, ming so'm	1 096 963 325
2.	Soliq stavkasi, %	4.0
3.	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar uchun soliq summasi (1-satr x 2-satr : 100) so'm	43 878 533
4.	Me'yordagi muddatlarda o'rnatilmagan uskunalarining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	-
5.	Soliq stavkasi, %	-
6.	Me'yordagi muddatlarda o'rnatilmagan uskunalar uchun soliq summasi (4-satr x 5-satr : 100), so'm	-
7.	Belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish ob'ektlarining o'rtacha yillik hajmi, ming so'm	-
8.	Soliq stavkasi, %	-
9.	Belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish ob'ekti uchun soliq summasi (7-satr x 8-satr : 100), ming so'm	-
10.	Soliqning umumiy summasi (3-satr + 6-satr + 9-satr), ming so'm	43 878 533
11.	Kvartallik joriy to'lovlar summasi	3 656 544,4

¹¹ "Qamxar" mas'uliyati cheklangan jamiyatining yillik xisobot ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ushbu korxona 2014 yil uchun jami 43 878,5 ming so'm mol-mulk solig'ini to'lashi lozim, shundan 3 656,5 ming so'mini birinchi oy (yanvar) uchun uchun to'lagan. Demak, korxona xisobot davri davomida qolgan summani har oyda belgilangan soliq summasining 1/12 qismi miqdorida soliq to'lashi zarur.

Endi e'tiborimizni jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilar tarkibi, soliq ob'ekti va bazasini shakllantirilishiga qaratamiz.

Ma'lumki, jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i amaldagi Soliq kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2002 yil 16 yanvardagi 2002-19-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan 05.03.2002 yil 1103-sonli "Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida yo'riqnoma asosida tartibga solinadi.

Soliq kodeksiga ko'ra, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilari bo'lib, mulkida solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs soliq to'lovchi bo'ladi.

Jismoniy shaxslar uchun ularning mulki bo'lgan uy-joylar, kvartiralar, chorbog' va bog' uylari, garajlar va boshqa imoratlar, binolar va inshootlar qiymati soliq solish ob'ekti hisoblanadi.

Soliq qonunchiligiga ko'ra, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish ob'ektlarining inventarizatsiya qiymati to'lovchilar uchun soliq solinadigan baza hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish ob'ektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solish bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish ob'ekti bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir ob'ekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari hisobi davlat soliq xizmati organlari tomonidan har bir yilning 1 yanvaridagi holat bo'yicha shahar va tumanlar bo'yicha, texnik inventarizatsiyalash hududiy kadastr byurosida mavjud bo'lgan imoratlar egalari to'g'risidagi ma'lumotlarga binoan o'tkaziladi.

Quyida keltirilayotgan jadvalda Toshkent shahar Shayxontohur tuman hududida 2014 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan mol-mulk (imorat va inshootlar) solig'ini to'lovchilarni hisobga olinishi va soliqqa tortilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan:

5-jadval

Shayxontohur tumanida jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilarini hisobga olinishi va soliqqa tortilishi¹²

Tuman nomi	01.01.2013 yilda jami hisobga olinganlar soni	01.01.2014 yilda jami hisobga olinganlar soni	Imtiyoz berilgan ob'ektlar			Soliqqa tortilgan ob'ektlar soni		
			xo'jalik soni	mulk qiymati (mln. so'm)	soliq summasi	xo'jalik soni	mulk qiymati (mln. so'm)	soliq summasi
Shayxonto hur	48653	50840	15 311	40864.1	225,9	33342	62567,0	520,9


Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Shayxontohur tumanida 2014 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jami hisobga olingan xo'jaliklar soni 50840 tani tashkil etmoqda. Shundan, imtiyozga ega bo'lgan mulklar soni 15311 tani tashkil etgan

¹² Shayxontohur tuman Davlat soliq inspeksiyasi ma'lumotlari

holda, mol-mulk solig'ining summasi esa mazkur ob'ektlar bo'yicha 225,9 mln. so'mni tashkil etmoqda. Soliqqa tortiladigan xo'jaliklar soni 33342 tani tashkil etgan holda, mol-mulk solig'ining summasi 520,9 mln. so'mni tashkil etmoqda.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi, ularni soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi umumbelgilangan tartibda etkazadi.

2011-2014 yillar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari quyidagi chizmada¹³ berilgan:



2-diagramma

Izoh:(1-ustun jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i stavkasi, 2-ustun agar maydoni 200 kv.m.dan 500 kv.m.gacha bulsa, 3-ustun agar maydoni 500 kv.metr dan ortiq bulsa)

1. Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yicha organlar belgilagan inventarizatsiya qiymati bo'lmasa, soliq undirish uchun Toshkent shahri va

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda PQ-2099-son qarori

viloyat markazlarida 18480,0 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda - 8030,0 ming so'm miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

2. Soliq solinadigan mol-mulkka egalik qiladigan pensionerlar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solinmaydigan umumiy maydonning 60 kv. metri hajmida belgilanadi.

3. Jismoniy shaxslar tomonidan turar joy fondi ob'ektlari noturar joy fond toifasiga o'tkazilganda yoki ular tomonidan noturar joy fond ob'ektlari (binolar, binodagi xonalar) mulk sifatida xarid qilinganda jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi.

Quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlarga soliq solinmaydi:

1) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning. Mazkur imtiyoz tegishincha «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ayollarning. Mazkur imtiyozni berish uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi asos bo'ladi;

5) pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

6) I va II guruh nogironlarining. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

7) sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilar hamda ichki ishlar organlari xodimlari ota-onalarining va beva xotinlarining (beva erlarining). Imtiyoz «Halok bo'lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» yoki «Ichki ishlar organlari halok bo'lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» shtampi qo'yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo'lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organi xodimining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan soliq solish ob'ektlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

Yuqorida nazarda tutilgan imtiyozlar mol-mulk egasining tanlashiga binoan, imtiyoz olish huquqini beruvchi zaruriy hujjatlar taqdim etilganda, mol-mulkning faqat bir ob'ektiga taalluqli bo'ladi. Bunda imtiyozlar mol-mulk imtiyoz oluvchining mulki bo'lgan hollardagina taqdim etiladi. Yil davomida

to'lovchilarda mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda ular ko'rsatilgan to'lovlardan ana shu huquq paydo bo'lgan oydan boshlab ozod etiladilar. Yil o'rtasida mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz huquqini yo'qotganda soliq solish ushbu huquq yo'qolgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladi.

Imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i ularning har yil 1 yanvardagi holati yuzasidan texnik inventarizatsiyalashning hududiy kadastr byurolari taqdim etadigan inventarizatsiya qiymatiga doir ma'lumotlar asosida hisoblab chiqariladi, bunday ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan, qayta baholanganidan keyin qayta hisob-kitob qilingan mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Quyida keltirilayotgan jadvalda Toshkent shahar Shayxontohur tuman hududida 2013 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan imorat va inshootlarning hisobga olinishi va texnik inventarizatsiyalashning hududiy kadastr byurolari (TIHKB) tomonidan baholanishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan:

6-jadval

Shayxontohur tuman hududida jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan imorat va inshootlarning hisobga olinishi va TIHKB tomonidan baholanishi¹⁴

Tuman nomi	Jami hisobga olingan mulklar soni	Shundan, TIHKB tomonidan baholangan (mln.so'mda)	Uy-joy		Xonadonlar		Garajlar	
			Hisobga olinganlar soni	TIHKB tomonidan baholangan	Hisobga olinganlar soni	TIHKB tomonidan baholangan	Hisobga olinganlar soni	TIHKB tomonidan baholangan
Shayxontohur	50840	72392.3	7210	6998	42259	42259	1183	1183

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, Shayxontohur tumanida 2014 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jami hisobga olingan mulklar soni 50840 tani tashkil etmoqda.

¹⁴ Shayxontohur tuman Davlat soliq inspeksiyasi ma'lumotlari

Shundan, uy-joylar soni 7210 tani, xonadonlar soni 42259 tani, garajlar soni 1183 tani tashkil etmoqda.

Mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomalari to'lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi. Soliq teng ulushlarda ikki muddatda - 15 iyun va 15 dekabrda kechiktirmay to'lanadi.

Soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'g'ri hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash ustidan nazoratni davlat soliq xizmati organlari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar.

2.2. Mol-mulk solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi tahlili

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish amaldagi soliq Kodeksining 267-moddasi bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq to'lovchi tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar to'laydilar.

Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 10 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga mo'ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o'rtacha yillik qiymatidan) va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda

hisoblangan joriy soliq davri uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar.

Soliq Kodeksiga muvofiq hisoblab chiqarilgan joriy to'lovlar quyidagicha to'lanadi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining to'rtidan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay.

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq solinadigan baza o'zgargan taqdirda soliq to'lovchi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to'lovlarga yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning o'zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi joriy to'lovlar hisobga olingan holda, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay byudjetga o'tkaziladi.

Soliq davrida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar summasi hisob-kitobga ko'ra byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliqsolinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda davlat soliq xizmati organlari tomonidan quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidenti doimiy muassasaning soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solinadigan mavjud mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotnomani hisobot yilidan keyingi yilning 25 yanvaridan kechiktirmay taqdim etishi shart. Taqdim etilgan ma'lumotnoma asosida davlat soliq xizmati organi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi hisob-kitobini o'n kun ichida amalga oshiradi va to'lov xabarnomasini yozib beradi;

O'zbekiston Respublikasining ko'chmas mulkka ega bo'lgan norezidentlariga ko'chmas mulk joylashgan yerdagi O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari soliq to'lovchining yoki ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida to'lov xabarnomasini yozib beradi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yilda bir marta, soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmay to'lanishi kerak.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, soliq solish ob'ekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ soliq solish ob'ekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga har yili 1 fevralgacha ob'ektning 1 yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra inventarizatsiya qiymatini va uning mulkdorini ko'rsatgan holda ma'lumot taqdim etadi.

Soliq Kodeksiga asosan imtiyozlarni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar imtiyozlarni olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadilar.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi mol-mulkning 1 yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra inventarizatsiya qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Bir nechta mulkdorning umumiy ulushli mulkida bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mulkdorlarning har biri tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi.

Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o'tgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mulkiga solinadigan soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e'tiboran u mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi. Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ular barpo etilgan yildan keyingi yil boshidan e'tiboran to'lanadi. Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq merosxo'rlarda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Soliq solish ob'ekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan, buzib tashlangan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan oydan e'tiboran to'xtatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik, buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

Kalendar yil mobaynida imtiyoz huquqi vujudga kelgan (amal qilishi tugagan) taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (amal qilishi tugagan) oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq to'lovchilarga davlat soliqxizmati organi tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni soliq davri uchun to'lash hisobot yilining 15 oktyabriga qadar amalga oshiriladi.

III-BOB. MOL-MULK SOLIG'INI HISOBLASH VA BYUDJETGA TO'LASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

3.1. Mol-mulk solig'ini qo'llashning amaliy muammolari

Ma'lumki, korxona ixtiyoridagi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qiymati qanchalik ko'p bo'lsa, ular tomonidan to'lanadigan mol-mulk solig'i ham shunga muvofiq ortib boradi. Soliq qonunchiligida soliq to'lovchilarga nisbatan anchagina salmoqli imtiyozlar tizimi amal qiladi. Lekin bunday turdagi soliq imtiyozlaridan faqatgina ayrim turdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalargina foydalanishi mumkin. Shu munosabat bilan soliqqa tortishning optimallashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etib, soliqlarni rejalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Soliqqa tortish masalasini optimallashtirish faqatgina istiqboldagi (strategik) vazifa bo'lib qolmay, balki ayrim turdagi operatsiyalarni amalga oshirilishida ham zarur.

Soliqlarni optimallashtirish deganda soliqdan qochishni tushunmaslik kerak. Chunki soliq to'lashdan qochish soliq majburiyatlarini noqonuniy yo'llar bilan kamaytirish bilan ifodalansa, soliqlarni optimallashtirish masalasi soliq majburiyatlarini korxona moliya xo'jalik faoliyatini strategik rejalashtirish orqali qonuniy kamaytirish bilan izohlanadi. Ayniqsa, hozirgi paytda butun dunyoda kuzatilayotgan iqtisodiy krizis sharoitida va moddiy resurslarning taqchilligi davrida soliqlarni rejalashtirilishi korxonalarni qiyin sharoitlarda ham yashovchanligini ta'minlaydi.

Ayniqsa, bugungi kunda soliq tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan mol-mulk solig'ida ham amalga oshirilayotganligini ko'rish mumkin. Bu esa, ushbu soliq turini va uning byudjetga undirish mexanizmini takomillashtirishini ko'zda tutadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan modernizatsiyalash jarayoni iqtisodiyotni eng ilg'or takomillashtirilgan loyihalar asosida zamonaviy qurilish

konstruktsiyalari va materiallarini qo'llab muayyan tarmoqqa moslab qurilgan, ixtisoslashtirilgan, foydalanish muddatlari ancha uzaytirilgan ishlab chiqarish binolarining barpo etilishi va ularni eng so'nggi texnika va zamonaviy ilg'or texnologiya asosida qurollantirib ishga tushirish uchun imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Asosiy fondlarning tarkibida faol qism, ya'ni mashina va apparatlarning ulushi qancha baland bo'lsa, asosiy fondlar qiymatining bir birligidan olinadigan mahsulot miqdori (fondootdacha) shuncha ko'p bo'ladi.

Ma'lumki, asosiy fondlarning passiv qismiga kiruvchi bino va inshootlar barpo etilgach, ishlab chiqarishga juda uzoq muddat (hattoki 50-80 yillargacha) xizmat qilib qo'shimcha investitsiyalar sarflanishi talab etilmaydi.

Shu bilan birga fan-texnika taraqqiyoti sur'atlarining tobora jadallashib borishi natijasida asosiy fondlar faol qismining amortizatsiya muddatlari qisqarib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, ularning yangilanish sur'atlari o'sishi va oqibatda qayta qurollantirishga sarflanadigan investitsiyalar miqyosining keskin ko'paytirib borish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bu talab albatta, soliqlarni ko'paytirishga olib kelmaydi.

Yuqoridagi ikkita o'zaro talablar sharoitida maqsadga muvofiq optimal variantni taklif qilish nihoyatda dolzarb muammodir. Shuning uchun, yuridik shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'ining stavkasini belgilash chog'ida mulkning faol qismi (mashina va jihozlar)dan foydalanish samaradorligini oshirish va ularning yangilanishini jadallashtirish imkonini beruvchi stavkalar belgilanishiga erishish zarur.

Bu holda mol-mulkdan foydalanish samaradorligi oshadi va soliq turining byudjetga tushishini keskin ko'paytirishga erishilishi mumkin.

Bugungi kunda mahalliy hokimiyatlar mahalliy soliqlar va yig'imlardan mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha mutlaq vakolatlarga ega emas, ular respublika qonunchiligi bilan joriy etiladigan mahalliy soliqlardir. Shuningdek, ayrim mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha, ya'ni obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, transport vositalariga benzin, dizel

yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning eng yuqori chegarasini Prezident qarorida belgilanishi mahalliy hokimiyat organlarining o'z daromadlarini mustahkamlash borasidagi vakolatlarini cheklaydi. Shuningdek, mahalliy hokimiyat organlarining respublika qonunchiligi bilan joriy etiladigan mol-mulk solig'i bo'yicha ham birgina vakolati mavjud bo'lib, u ham bo'lsa, o'z hududida joylashgan soliq to'lovchilarga qo'shimcha imtiyozlar berishlari mumkin. Bu esa mahalliy hokimiyat organlarining soliq potentsialini mustahkamlash uchun to'sqinlik qilishi mumkin.

Mahalliy byudjetlar daromadlarini umumdavlat soliqlari hisobiga shakllantirilishi ular xarajatlarini mahalliy byudjetlarning birlamchi daromad manbai hisoblangan mahalliy soliqlar va yig'imlar hisobiga moliyalashtirish imkoni yo'qligi bilan ifodalanadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mahalliy hokimiyat organlarining o'zlariga bevosita biriktirilgan mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha vakolatlarining cheklanganligi sharoitida, umumdavlat soliqlaridan ajratmalar amalga oshirilishi ularda o'z daromadlari bazasini mustahkamlashdagi vakolatlarini yanada cheklab qo'ymoqda.

Mol-mulkka solinadigan soliqlar bo'yicha yuqori ulushli tushumlar ko'chmas mulkdan undiriladi. Inshaot va imoratlarni soliqqa tortishda ularning qurilish materiallari, yerga biriktirish usullari, xajmi va foydalanish maqsadlaridan kelib chiqqan holda soliqqa tortish shartlari differentsiyalanadi. Albatta, turar joylarni va sanoatga tegishli binolarni soliqqa tortish shartlari sezilarli farq qiladi. Yer uchastkalarini soliqqa tortishda qaysi xo'jalik maqsadlarida foydalanishidan kelib chiqqan holda farqlanadi. Imorat qurilgan va qurilmagan yer uchastkalari, qishloq xo'jaligi maqsadlarida ishlatiladigan va ishlatilmaydigan yer uchastkalarini soliqqa tortish tizimi farq qiladi. Odatda ushbu soliq stavkalari yer uchastkasining kadastr qiymatidan foizlarda belgilanadi. Bu soliqlardan davlat mulkida, mahalliy hokimiyat organlari mulkida, shuningdek, qonun-hujjatlarda ko'rsatilgan tashkilotlar mulkida bo'lgan ob'ektlar ozod etilishi mumkin.

Ushbu soliqlar orasida ko'chmas mulk solig'i asosiy soliq hisoblanadi, bu soliqqa yer uchastkalari va imoratlar tortiladi. Bu soliq stavkalari yuqori bo'lmaydi va odatda shunday mulk qiymatining 1,0–3,0%ini tashkil etadi. Ba'zi mamlakatlarda shuningdek, mulkning umumiy summasiga solinadigan soliq ham bo'ladi, unga faqat yirik mulk tortiladi, chunki ushbu soliq borasida soliq solinmaydigan yuqori darajali minimum ko'zda tutilgan. Soliq solinadigan mulk tarkibiga yer uchastkalari va imoratlardan tashqari, kompaniyalarning aksiyalari paketlari, individual (yakka) tadbirkorlarning aktivlari va tovar zaxiralari, uchinchi shaxslar qarzdorligi va shu kabilar ham kiritiladi. Soliq stavkalari 1,0–2,0%ni tashkil etadi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti hukmronlik qilayotgan dunyoning barcha mamlakatlaridagi kabi O'zbekistonda xam jamiyat a'zolari bo'lgan fuqarolarning "boylar" va "kambag'allar"ga bo'linishiga olib kelmoqda. Bunga huquqiy asos sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'kidlab o'tilgan: "Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli" hamda "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi".

Mamlakatimiz soliq siyosatining asosiga bozor iqtisodiyotiga o'tishning akademik I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbek modeli"da ilgari surilgan 5 tamoyilning biri bo'lgan "kuchli ijtimoiy siyosat tamoyili" qo'yilgan bo'lib, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining ijtimoiy odillik (ya'ni, boylardan ko'proq, kambag'allardan kamroq undirish)ni ta'minlaydigan mexanizmining ilmiy asoslangan variantlari qo'llanilishi talab etiladi.

Masalan, maydoni 650 kvadrat metr bo'lgan 4 qavatli uyda 2 kishidan iborat boy yoki 25 kishidan iborat kambag'al oila yashashi mumkin. Ammo, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining 2013 yil uchun belgilangan stavkalar yuqorida keltirilgan ijtimoiy odillik tamoyili talablariga mos kelmaydi desak xato bo'lmaydi.

Jadvalga ko'ra, shaharlarda joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m.dan ko'p bo'lgan uy-joylar, xonadonalar uchun pog'onalashtirilgan soliq stavkalari

qo'llanilib, umumiy maydoni 200 kv.m.dan ko'p, lekin 500 kv.m.gacha bo'lgan uy-joylar, xonadonlarda soliq stavkasi 1,25%ni, maydoni 500 kv.m.dan ortiq bo'lgan uy-joylar, xonadonlarda soliq stavkasi miqdori 1,55 % ni tashkil etdi.

Ammo oshirilgan stavkalarni qo'llashda, yashovchilar soni e'tiborga olinmagan. Masalan, Toshkent shahrida joylashgan umumiy maydoni 600 kvadrat metr bo'lgan uyda boshlig'i 1 kishi bo'lgan oilada 15 kishi yashaydi, ya'ni 1 kishi boshiga 40 kv.m. maydon to'g'ri keladi. Agar, nafaqaxo'rlarga mol-mulk solig'idan berilgan imtiyoz, ya'ni jismoniy shaxs mulkining soliqqa tortilmaydigan qismining me'yori 1 nafaqaxo'rga 60 kv.m. qilib belgilab berilganligini e'tiborga olib, xonadonda yashovchi 1 kishi uchun yashash maydoni me'yorini shartli ravishda 60 kv.m. deb belgilab olsak, 15 kishilik oila mol-mulk solig'ini 1,04 % lik stavka bilan to'lashi lozim, chunki kishi boshiga to'g'ri keladigan yashash maydoni me'yordan ancha ($60-40=20$ kv.m.) past.

Jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'i bo'yicha oshirilgan stavkalarni belgilashda uyning umumiy maydonidan emas, balki unda yashovchilarning har biriga to'g'ri keladigan yashash maydoni miqdoridan kelib chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk soligi stavkasi turar-joylar, boshka imoratlar va xonadonlarning texnik inventarizatsiya korxonalari tomonidan kayta baxolangan qiymatiga nisbatan foizlarda o'rnatilgan. Bunda, jismoniy shaxslar mol-mulklarining haqiqiy bozor bahosi hisobga olinmaydi. Mol-mulklarni va tugallanmagan inshootlarni qayta baholash ishlari hozirgi kundagi haqiqiy bozor bahosidan ancha past baholanmokda. Natijada qayta baholangan mol-mulklarning bahosi haqiqiy bozor bahosidan ancha farq qiladi. xuddi shunday ko'pchilik yangi qurilgan (uy,dala hovli,kottejlar) uylarning texnik ruyxatga olish byurosidan ro'yxatdan o'tkazish, mulkni baholash va kayta baholash muammoligicha kolmokda.

Buning ustiga soliq stavkasi mulkning BTI baxolagan qiymatiga qo'llanilayotganligi, mahalliy byudjetlar daromadining kamayishiga olib

kelmokda, shuning uchun qurilish mollari va ishlar bozori narxlarini ham hisobga olgan holda, jismoniy shaxslarning mulk solig'i stavkasini har 2 yilda yil boshiga hisobga olishda indeksatsiya koeffitsientini qo'llash maqsadga muvofiq degan xulosaga kelish mumkin.

Qayta baholash jarayoni xam muammolardan xoli deb bo'lmaydi, Bundan kelib chiqib soliqni hisoblashda mulkning baho elementi o'z vazifasini bajarmaganligi uchun soliqning samaradorligiga salbiy ta'sir kilmokda.

Shu narsa aniqki, mol-mulkning inventarizatsiya qiymati pastligi tufayli, soliqqa tortish maqsadlarida kvartiralar va boshqa ko'chmas mulk ob'ektlari bahosini mahalliy hokimiyatlar tomonidan belgilangan oshirish koeffitsientlarini qo'llash yo'li bilan bozor bahosi ishlab chiqish, amaldagi soliq stavkalarini saqlab qolish soliq summasi bir-necha baravar ortib ketishiga olib keladi. Bu esa o'zlarining birdan–bir kvartiralarini yoki boshqa kuchmas mulk ob'ektlarini xususiy lashtirib olgan fukarolarning ko'pchilik qismi uchun juda og'ir bo'ladi.

3.2. Mol-mulk solig'i undirishni takomillashtirish yo'nalishlari

Dunyoning hech qaysi davlatida qotib qolgan soliq tizimi mavjud emas. Shu jihatdan olib qaraganda, soliq tizimi iqtisodiy siyosatning mazmun va shakliga muvofiq tarzda takomillashtirilib borilishi zarur. Bunda asosiy e'tibor xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hamda soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning davlat byudjeti bilan majburiy to'lovlar bo'yicha iqtisodiy munosabatlarining eng qulay uyg'unligini ta'minlashga qaratilishi zarur. Boshqa soliq turlari singari jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar, ya'ni, mol-mulk va yer solig'ini mavjud mexanizmini nazariy jixatdan tahlili bu soliq turlarini undirishni ham yanada takomillashtirish zarurligini keltirib chiqaradi.

Mazkur masalani yoritishda, soliqni to'lash sub'ektlari nuqtai nazaridan, xususan avvalo yuridik shaxslar bo'yicha, keyin jismoniy shaxslar bo'yicha

mol-mulk solig'iga tortish va uni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlarini ko'rib o'tamiz.

Ma'lumki, mol-mulkdan soliq olish mexanizmining samarali ishlashi ko'p jihatdan bu soliq turini amal qilishini ta'minlab turuvchi soliq qonunchiligining va tegishli me'yoriy hujjatlarning barqarorligiga bevosita bog'liqdir. Mazkur masalani o'rganish natijasiga ko'ra, bu soliq ilk bor qo'llanila boshlagandan to hozirgacha o'ndan otiq turli o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilgan. Bu, soliq solishda muqimlikning mavjud emasligi bilan ifodalanib, bu narsani oldini olish vaqti keldi.

Mol-mulk solig'ini hisoblash ob'ekti bo'lib hisoblanadigan qoldiq qiymatni soliqqa tortish natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan byudjet yo'qotishlarini bartaraf qilish maqsadida balans aktivining mulk deb inkor etib bo'lmaydigan tegishli schetlaridagi qoldiqlarini ham soliqqa tortish hisobiga kiritish lozim. Bular xo'jalik yurituvchi sub'ektlar manfaatlariga to'liq mos tushishiga quyidagilar orqali to'liq erishish mumkin bo'ladi:

- korxonalarining aylanma mablag'larini vaqtincha to'xtatib qo'yadigan ortiqcha hajmdagi moddiy zahiralarini qiskartirish;

- tayyor maxsulotlarning oldi-sotdi (jo'natish) jarayonlarini jadallashtirish va rivojlantirish;

- ishlab chiqarish texnologik tsikllari vaqtini qisqartirish va tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini kamaytirish;

- ishlab chiqarish zahiralarining optimal miqdorini belgilash;

Shuningdek, mazkur soliq bo'yicha soliq elementining tahlili shuni ko'rsatadiki, amalda korxonalar mol-mulk solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlarning me'yoriy hujjatlardagi holati bo'yicha hamda ularning ba'zi qismlari bir-birini takrorlashi hamda samarasiz va amaliyotda kam qo'llaniladigan imtiyozlar ham mavjud. Soliq qonunchiligiga asosan korxonalar mol-mulk solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlar ikki xil ko'rinishda:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mol-mulkini soliqqa tortishdan to'liq ozod etish;

- soliqqa tortish maqsadida korxonaning mol-mulkiga qarab, ya'ni korxona mol-mulkining qiymati balans (normativ) qiymatga kamaytirilishidan iborat.

Korxonalarga imtiyoz berishda investitsiya manbasiga ko'ra, u mahalliy korxonami yoki chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona ekanligidan qat'i nazar, iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari yo'naltirilgan u yoki bu halq xo'jaligi tarmoqlarini rag'batlantirishga qaratilganligiga qarab berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Soliq qonunchiligiga asosan hozirda mol-mulk solig'i to'lovchilarning aksariyati bir xil darajadagi soliq stavkasi bo'yicha soliqqa tortilmoqda. Bu narsa esa, soliq to'lovchilarga nisbatan bir xil yondashilayotganligidan dalolat beradi. Soliq to'lovchilarga nisbatan bir xil talab kuyilishi, o'z navbatida, ularning barchasi bir xil sharoitga ega bo'lgan taqdirda o'z ma'nosiga egadir. Shuning uchun, mol-mulkdan olinadigan soliq stavkasini soliq to'lovchilar mol-mulkini qayta baholash natijalari va samaradorlik darajasini hisobga olgan holda belgilash maqsadga muvofiqdir. Chunki, qayta baholash va samaralilik ko'rsatkichlarining darajasiga qarab belgilanadigan soliq stavkasi, qayta baholashdan keyingi yillarda amaldagi soliq stavkasiga nisbatan pastrok o'rnatilmog'i kerak va bu stavka davriy qayta baholashni inobatga olgan holda o'zgarmas harakteriga ega bo'lishi lozim. To'g'ri, mol-mulkdan olinadigan soliq stavkasini o'rnatishga bunday yondashish soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lgan jarayonni bir oz murakkablashtiradi.

Iqtisodiy asoslangan shart-sharoitlarni tashkil etish maqsadida takror ishlab chiqarish orqali pul mablag'lari resurslarni shakllantirishda korxonalarda asosiy ishlab chiqarish fondlarini davriy inflyatsiya yuqori suratlarini hisobga olgan holda asosiy ishlab chiqarish fondlarini qayta baholash amalga oshiriladi. Bu xo'jalik faoliyatini yurituvchi barcha korxonalar va tashkilotlarga, mulkchiligidan va faoliyat turidan qat'i nazar ularga tegishli hisoblanadi. qayta baholashga korxona asosiy fondlari hisoblanadigan, binolar, inshootlar, o'zatuvchi moslamalar, transport vositalari, mashinalar, asbob-uskunalar va boshqa turdagi asosiy vositalar eskirish darajasidan qat'i nazar tegishli bo'lib

hisoblanadi. Asosiy fondlarni qayta baholashda dastlabki ma'lumotlar ko'zda tutilib, ularning to'liq balans qiymatini aniqlashda, asosiy fondlarining qiymatini qayta baholash (hisoblash)da indekslaridan foydalaniladi. Asosiy fondlar tiklash qiymati bo'yicha qayta baholanib, balans qiymatini tegishli koeffitsientlarga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Mazkur ishda taklif etilgan birinchi galdagi chora-tadbirlar bo'lib, soliqqa tortiladigan baza sifatida xizmat qiladigan korxonalar mol-mulkini qoldiq qiymatini aniqlash, qayta baholashdan keyin imkon qadar soliq stavkasini pasaytirish, amal qilayotgan imtiyozlarni qisqartirish hamda jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini soliqqa tortishni birin-ketin yaqinlashtirish hisoblanadi. Shuningdek soliqqa tortiladigan ob'ektni kelajakda takomillashtirish maqsadida unga ishlab chiqarish zahiralarini kiritish hisobidan kengaytirish birinchi galda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy tadbirlardan hisoblanadi.

Bizning nazarimizda soliqqa tortish bazasi bir xil bo'lgan soliqlarni birlashtirilishi albatta yaxshi natija berishi ma'lum. Jumladan, soliqqa tortiladigan baza o'z ichiga yer uchastkalarini (shartli bahoni ishlab chiqish) va asosiy fondlar hamda nomoddiy aktivlarning qiymatini olib, bir xil soliqqa tortish bazasini tashkil qilmoqda. Shuning uchun yer va mol-mulk soliqlarini ob'ektini birlashtirib, kuchmas mulkga nisbatan yagona soliq tizimini o'rnatish maqsadga muvofiqdir.

Mol-mulk solig'i bo'yicha amalda mavjud bo'lgan imtiyozlarni qisqartirish, ya'ni soliq imtiyozini olish bo'yicha alohida mezonlar ishlab chiqqan holda mol-mulk egalari o'rtasida tenglikni amalga oshirish mumkin. Ma'lum darajada soliq to'lovchilarni soliqdan ozod qilish, erkin pul mablag'laridan samarali foydalanish uchun investitsiya resurslarini sotib olishga imkon beradigan yo'nalishlarga safabar qilish lozimdir. Shunday qilib moliyaviy aktivlarga safabar qilingan u yoki bu korxonalarning mablag'lari imtiyozli tartiblar o'rnatilishi orqali davlat uchun qulay bo'lgan yo'nalishda kapitalni tarmoqlarga to'g'ri va teng quyilisha olib keladi. Kelgusida moliya bozorini,

jumladan ko'chmas mulk bozorini rivojlantirish chorasi sifatida, mulkdorlar tassarufiga mulk hajmini amaldagi tabaqalashuvi (differentsiyatsiyasi)ni ushbu mulklarni soliqlar orqali boshqarilish ta'minlaydi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini soliqqa tortishda quyidagi takliflarni amalga oshirilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan mulk, dala xovlilar, har xil qurilmalar egalari hamda yer maydonlarini to'liq hisobga olinishini natijasida soliq to'lovchilar sonini aniqlashtirish va ularga nisbatan soliq stavkasini oshirib borish;

- ayrim kam samara berayotgan imtiyozlarni qayta ko'rib chiqilishi va ulardan kelgusida foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqish;

- jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'i bo'yicha oshirilgan stavkalarni belgilashda uyning umumiy maydonidan emas, balki unda yashovchilarning har biriga to'g'ri keladigan yashash maydoni miqdoridan kelib chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

- jismoniy shaxslar mol-mulklarining haqiqiy bozor bahosi hisobga olinmaydi. Shuning uchun mol-mulklarni va tugallanmagan inshootlarni qayta baholash ishlari hozirgi kundagi haqiqiy bozor bahosidan ancha past baholanmokda. Natijada qayta baholangan mol-mulklarning bahosi haqiqiy bozor bahosidan ancha farq qiladi. xuddi shunday ko'pchilik yangi qurilgan (uy,dala hovli,kottejlar) uylarning texnik ruyxatga olish byurosidan ro'yxatdan o'tkazish, mulkni baholash va kayta baholash ayniqsa muhimdir. Buning ustiga soliq stavkasi mulkning BTI baholagan qiymatiga qo'llanilayotganligi, mahalliy byudjetlar daromadining kamayishiga olib kelmokda, shuning uchun qurilish mollari va ishlar bozori narxlarini ham hisobga olgan holda, jismoniy shaxslarning mulk solig'i stavkasini har 2 yilda yil boshiga hisobga olishda indeksatsiya koeffitsientini qo'llash maqsadga muvofiq degan xulosaga kelish mumkin.

- hududiy kadastr texnik ro'yxatga olish byurolari tomonidan jismoniy shaxslarga mulk sifatida tegishli bo'lgan imoratlar va inshootlarni

inventarizatsiya qilib baholashda qo'llanilayotgan ko'taruvchi koeffitsientlarni har yili vujudga kelayotgan inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqib, tasdiqlash borasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlariga tegishli topshiriq berish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

- Mol-mulkni inventarizatsiya qiymati bo'yicha baholashdan voz kechish hamda bozor qiymati buyicha baholashni qabul qilish, soliq summasini turli koeffitsientlar vositasida yoki boshqa usullar bilan yangicha hisoblashga o'tish usullarini ishlab chiqish zarur.

XULOSA

Mazkur bitiruv malakaviy ishida mol-mulk solig'ining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish, ushbu soliqning byudjet daromadlaridagi ulushini, xususan mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini, yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortishning amaldagi tizimini tahlil qilish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish mexanizmidagi muammolarni bartaraf qilish va soliqni undirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi nazariy xulosalar hamda amaliy tavsiyalarni asoslashga harakat qilindi. Ular quyidagicha:

1. Mamlakatimiz iqtisodiyotida bo'layotgan tub o'zgarishlar soliq tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblangan mol-mulk solig'ini ham takomillashtirishni talab etmoqda. Shuningdek, ushbu soliq turi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida faqatgina davlat byudjetini mablag' bilan ta'minlash vazifasini bajaribgina qolmay, soliq to'lovchining o'zini mulkdor deb xis qilishga ta'sir ko'rsatuvchi omil vazifasini ham bajaradi va moddiy jihatdan ta'minlashga imkon beradi.

2. Soliqdan davlat byudjetiga tushumlarning absolyut va nisbiy ko'rsatkichlarda o'sishining asosiy sababi soliq to'lovchilar ixtiyorida mulkiy soliqlar bazasining o'sishi hamda jismoniy shaxslardan olinadigan mulk soliqlari stavkalarining oshirib borishi bilan izohlanadi.

3. Mol-mulkdan olinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining soliq tizimida markaziy o'rinlardan birini egallamasada (jumladan hozirgi kunda ushbu soliq yordamida davlat byudjeti daromadlarining 3-4 foizini shakllantirmoqda), mamlakatimiz soliq tizimida o'ziga xos o'ringa ega. Chunki bu soliq, birinchi navbatda mahalliy byudjetlarning daromad manbalarini mustaxkamlashda ham alohida o'rin tutadi.

5. Mol-mulkdan soliq olish mexanizmining samarali ishlashi shu soliq amal qilishini ta'minlab turuvchi soliq qonunchiligining va tegishli me'yoriy hujjatlarning barqarorligiga bevosita bog'liqdir. O'rganish natijasiga ko'ra, bu

soliq ilk bor qo'llanila boshlagandan to hozirgacha bir necha o'ndan otiq turli o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilgan.

6. Mol-mulk solig'ini hisoblash ob'ekti bo'lib hisoblanadigan qoldiq qiymatni soliqqa tortish natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan byudjet yo'qotishlarini bartaraf qilish maqsadida balans aktivining mulk deb inkor etib bo'lmaydigan tegishli schetlaridagi qoldiqlarini ham soliqqa tortish hisobiga kiritish lozim. Bular xo'jalik yurituvchi sub'ektlar manfaatlariga to'liq mos tushadi.

7. Korxonalarga imtiyoz berishda investitsiya manbasiga ko'ra, u mahalliy korxonami yoki chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona ekanligidan qat'i nazar, iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari yo'naltirilgan u yoki bu halq xo'jaligi tarmoqlarini rag'batlantirishga qaratilganligiga qarab berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

8. Soliq qonunchiligiga asosan hozirda mol-mulk solig'i to'lovchilarning aksariyati bir xil darajadagi soliq stavkasi bo'yicha soliqqa tortilmoqda. Bu narsa esa, soliq to'lovchilarga nisbatan bir xil yondashilayotganligidan dalolat beradi. Soliq to'lovchilarga nisbatan bir xil talab kuyilishi, o'z navbatida, ularning barchasi bir xil sharoitga ega bo'lgan taqdirda o'z ma'nosiga egadir. Shuning uchun, mol-mulkdan olinadigan soliq stavkasini soliq to'lovchilar mol-mulkini qayta baholash natijalari va samaradorlik darajasini hisobga olgan holda belgilash maqsadga muvofiqdir. Chunki, qayta baholash va samaralilik ko'rsatkichlarining darajasiga qarab belgilanadigan soliq stavkasi, qayta baholashdan keyingi yillarda amaldagi soliq stakasiga nisbatan pastrok o'rnatilmog'i kerak va bu stavka davriy qayta baholashni inobatga olgan holda o'zgarmas harakteriga ega bo'lishi lozim.

9. Iqtisodiy asoslangan shart-sharoitlarni tashkil etish maqsadida takror ishlab chiqarish orqali pul mablag'lari resurslarni shakllantirishda korxonalarda asosiy ishlab chiqarish fondlarini davriy inflyatsiya yuqori suratlarini hisobga olgan holda asosiy ishlab chiqarish fondlarini qayta baholash amalga oshiriladi. Bu xo'jalik faoliyatini yurituvchi barcha korxonalar va tashkilotlarga,

mulkchiligidan va faoliyat turidan qat'i nazar ularga tegishli hisoblanadi. Qayta baholashga korxona asosiy fondlari hisoblanadigan, binolar, inshootlar, o'zativchi moslamalar, transport vositalari, mashinalar, asbob-uskunalar va boshqa turdagi asosiy vositalar eskirish darajasidan qat'i nazar tegishli bo'lib hisoblanadi. Asosiy fondlarni qayta baholashda dastlabki ma'lumotlar ko'zda tutilib, ularning to'liq balans qiymatini aniqlashda, asosiy fondlarining qiymatini qayta baholash (hisoblash)da indekslaridan foydalaniladi. Asosiy fondlar tiklash qiymati bo'yicha qayta baholanib, balans qiymatini tegishli koeffitsientlarga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida taklif etilgan birinchi galdagi chora-tadbirlar bo'lib, soliqqa tortiladigan baza sifatida xizmat qiladigan korxonalar mol-mulkini qoldiq qiymatini aniqlash, qayta baholashdan keyin imkon qadar soliq stavkasini pasaytirish, amal qilayotgan imtiyozlarni qisqartirish hamda jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini soliqqa tortishni birin-ketin yakinlashtirish hisoblanadi. Shuningdek soliqqa tortiladigan ob'ektni kelajakda takomillashtirish maqsadida unga ishlab chiqarish zahiralarini kiritish hisobidan kengaytirish birinchi galda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy tadbirlardan hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini o'zgartirish borasidagi yana bir tavsiyalardan biri bo'lib, amalda mavjud bo'lgan imtiyozlarni qisqartirish, ya'ni kaysi toifaga ularni tegishliligidan qat'i nazar, mol-mulk egalari o'rtasida tenglikni amalga oshirishdan iborat. Ma'lum darajada soliq to'lovchilarni soliqdan ozod qilish, erkin pul mablag'laridan samarali foydalanish uchun investitsiya resurslarini sotib olishga imkon beradigan yo'nalishlarga safabar qilish lozimdir. Shunday qilib moliyaviy aktivlarga safabar qilingan u yoki bu korxonalarning mablag'lari imtiyozli tartiblar o'rnatilishi orqali davlat uchun qulay bo'lgan yo'nalishda kapitalni tarmoqlarga to'g'ri va teng quyilisha olib keladi. Kelgusida moliya bozorini, jumladan ko'chmas mulk bozorini rivojlantirish chorasi sifatida, mulkdorlar tassarufigidagi mulk hajmini amaldagi

tabaqalashuvi (differentitsiyatsiyasi)ni ushbu mulklarni soliqlar orqali boshqarilish ta'minlaydi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini soliqqa tortishda quyidagi takliflarni amalga oshirilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan mulk, dala xovlilar, har xil qurilmalar egalari hamda yer maydonlarini to'liq hisobga olinishini natijasida soliq to'lovchilar sonini aniqlashtirish va ularga nisbatan soliq stavkasini oshirib borish;

- ayrim kam samara berayotgan imtiyozlarni qayta ko'rib chiqilishi va ulardan kelgusida foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqish;

- jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'i bo'yicha oshirilgan stavkalarni belgilashda uyning umumiy maydonidan emas, balki unda yashovchilarning har biriga to'g'ri keladigan yashash maydoni miqdoridan kelib chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

- jismoniy shaxslar mol-mulklarining haqiqiy bozor bahosi hisobga olinmaydi. Shuning uchun mol-mulklarni va tugallanmagan inshootlarni qayta baholash ishlari hozirgi kundagi haqiqiy bozor bahosidan ancha past baholanmokda. Natijada qayta baholangan mol-mulklarning bahosi haqiqiy bozor bahosidan ancha farq qiladi. xuddi shunday ko'pchilik yangi qurilgan (uy,dala hovli,kottejlar) uylarning texnik ruyxatga olish byurosidan ro'yxatdan o'tkazish, mulkni baholash va kayta baholash ayniqsa muhimdir. Buning ustiga soliq stavkasi mulkning BTI baholagan qiymatiga qo'llanilayotganligi, mahalliy byudjetlar daromadining kamayishiga olib kelmokda, shuning uchun qurilish mollari va ishlar bozori narxlarini ham hisobga olgan holda, jismoniy shaxslarning mulk solig'i stavkasini har 2 yilda yil boshiga hisobga olishda indeksatsiya koeffitsientini qo'llash maqsadga muvofiq degan xulosaga kelish mumkin.

- hududiy kadastr texnik ro'yxatga olish byurolari tomonidan jismoniy shaxslarga mulk sifatida tegishli bo'lgan imoratlar va inshootlarni inventarizatsiya qilib baholashda qo'llanilayotgan ko'taruvchi koeffitsientlarni

har yili vujudga kelayotgan inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqib, tasdiqlash borasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlariga tegishli topshiriq berish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

Mol-mulkni inventarizatsiya qiymati bo'yicha baholashdan voz kechish hamda bozor qiymati buyicha baholashni qabul qilish, soliq summasini turli koeffitsientlar vositasida yoki boshqa usullar bilan yangicha hisoblashga o'tish usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012 y. -40 B.

1.2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 1997 yil, 29 avgust.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr -O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2012 y. -590 B.

1.4. O'zbekiston Respublikasining "Soliq maslahati to'g'risida"gi qonuni. 2006 yil 21 sentyabr. //Soliqlar va bojxona xabarlar gazetasi. 2006 yil 21 sentyabr.

1.5. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuni. 2000 yil 14 dekabr. //Soliqlar va bojxona xabarlar gazetasi. 2001 yil 2-son.

1.6. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zR-343-sonli Qonuni.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1449-sonli Qarori (2010 yil 24 dekabr).

1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1675-sonli Qarori (2011 yil 30 dekabr).

1.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).

1.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2099-sonli Qarori (2013 yil 25 dekabr).

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi “Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1257 sonli Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma’ruzalari

1.12. Karimov I. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. -Toshkent.: “O‘zbekiston” 1995 y.

1.13. Karimov I. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik. –T.: “O‘zbekiston”. 2005.

1.14. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokrat-lashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2005.

1.15. Karimov I. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. -T.: “O‘zbekiston”. 2009.

1.16. Karimov I. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi”. //Toshkent oqshomi gazetasi. 2009 yil 16 fevral. №32.

1.17. Karimov I. “Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”. Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi 2010 yil 29 yanvar.

1.18. Karimov I. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi". Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 2011 yil 21 yanvar.

1.19. Karimov I. "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" Prezident Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 2012 yil 19 yanvar.

1.20. Karimov I. "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Halq so'zi. 2013 yil 19 yanvar.

1.21. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

Darslik va o'quv adabiyotlari:

2.1. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. //Darslik. –T.: "Sharq". 2009. -526 b.

- 2.2. Almardonov M., Kuzieva N. Soliqlar va soliqqa tortish. -T.: “Iqtisod-moliya”. 2007.
- 2.3. Yuldashev I. Soliq va soliqqa tortish. -T.: Fan va texnologiyalar. 2007.
- 2.4. Toshmurodova B. Soliq nazorati. //O’quv qo’llanma. – T.: Iqtisod-moliya. 2007.
- 2.5. Fayziev Sh. Soliq va to’lovlar auditining xususiyatlari. -T.: “Iqtisod-moliya”. 2006.
- 2.6. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. //O’quv qo’llanma. -T.: Iqtisod-moliya. 2005.
- 2.7. Jo’raev A., Safarov G’. Soliq nazariyasi. //O’quv qo’llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”. 2005.
- 2.8. Abduraxmonov O., Kushakaev B. Soliq islohotlari: izchillik va tadrijiylik. -T.: “Akademiya”. 2005.
- 2.9. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. //O’quv qo’llanma. -T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”. 2005.
- 2.10. Jo’raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo’llari. //monografiya. –T.: “Fan”. 2004.
- 2.11. Toshmatov Sh., Komilov M. Qo’shilgan qiymat solig’i. -T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”. 2004.
- 2.12. Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. //O’quv qo’llanma. -T.: 2003.
- 2.13. Mamanazarov A. Soliq siyosati. -T.: “Moliya”. 2003. 19-bet.
- 2.14. Toshmurodova B. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. –T.: “Yangi asr avlodi”. 2002.
- 2.15. Panskov V.G. Nalogi i nalogovaya sistema Rossiyskoy Federatsii. – M.: “Finansi i statistika” 2006.
- 2.16. Yurina L. Nalogi i nalogoblojenie. -SPb.: “PITER”. 2007.
- 2.17. Bodrova T. Nalogoviy uchët i formirovanie uchëtnoy politiki dlya tseley nalogoblojeniya. -M.: “Dashkov i K”. 2006.
- 2.18. Malixin V. Ekonomiko-matematicheskoe modelirovanie

nalogooblojeniya. //Uchebnoe posobie. -M.: “Visshaya shkola”. 2006.

2.19. Romanova A. Organizatsiya i metodi nalogovix proverok. //Uchebnoe posobie. -M.: “Vuzovskiy uchebnik”. 2006.

2.20. Lukash Yu. Optimizatsiya nalogov. Metodi i sxemi. -M.: “Gross Media”. 2005.

2.21. Abduraxmanov O. Nalogovie sistemi stran s perexodnoy ekonomiki. – M.: Paleotip. 2005.

2.22. Milyakov. N. Nalogi nalogooblojenie. -M.: Infra-M. 2005. str. 69.

2.23. Makareva V. Optimizatsiya nalogooblojeniya. –M.: ООО “Goryachaya liniya buxgaltera”. 2005. str. 56.

2.24. Serdyukov A. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik dlya vuzov. -SPb.: “PITER”. 2005. str. 51

2.25. Bard V., Pavlova L. Nalogi v usloviyax ekonomicheskoy integratsii. - M.: “Knorus”. 2004.

2.26. Panskov V., Knyazev V. Nalogi i nalogooblojeniya. -M.: MTsFER. 2003. 57 str.

2.27. Romanovskiy M. Nalogi i nalogooblojenie.. -SPb.: “PITER”. 2003.

2.28. Panskov V., Knyazev V. Nalogi i nalogooblojenie. //Uchebnik. –M.: MTsFER. 2003.

2.29. Perov A., Tolkushkin A. Nalogi i nalogooblojenie. //Uchebnoe posobie. -M.: “Yurayt-Izdat”. 2003.

2.30. Chernik D., Pavlova L., Dadashev A. Nalogi i nalogooblojenie. //Uchebnik. -M.: INFRA-M. 2003.

2.31. Yutkina T. Nalogi i nalogoblojenie. -M.: “YuNITI”. 2002.

2.32. Gorskiy I.V.«Nalogi v rinochnoy ekonomiki,Moskva.,1992, 32-346.

2.33. Aliev B.X. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnoe posobie/Pod red.B.X.Alieva. – M.: Finansi i statistika, 2004. – S.269.

2.34. Polyak G. Nalogi i nalogoblojenie. -M.: “YuNITI”. 2002.

2.35. Finansovo-kreditniy entsiklopedicheskiy slovar. //Pod red. A.Gryaznovoy. -M.: “Finansi i statistika”. 2002.

2.36. Aleksandrov I. Nalogovie sistemi Rossii i zarubejnix stran. -M.: "Beratov-Press". 2002.

2.37. Milyakov N. Nalogi i nalogooblojenie: Praktikum. -M.: "INFRA-M". 2001.

Ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar:

2.38. Jo'raev A. Daromad, byudjet va soliqlar. // Soliq to'lovchining jurnali. — Toshkent, 2004. №4, - B. 27.

2.39. Niyozmetov I. Soliq yukini mikrodarajada baholashning ob'ektiv zarurati. // Bozor pul va kredit. - Toshkent, 2007. - №5. - B. 51-53.

2.40. "Soliq tizimini takomillashtirish yo'nalishlari" // Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. -T.: "Iqtisod-moliya". 2011.

2.41. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning rag'batlantiruvchanlik rolini yanada oshirish yo'llari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. 2014 yil 22 fevral. TMI.

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

3.1. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2009 yil. -T.:2010.-№12.

3.2. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2011.-№9.

3.3. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2012.-№6.

3.4. O'zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2008 - 2012.

IV. Internet saytlari.

4.1. <http://www.prezident.uz>-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti.

4.2. <http://www.gov.uz>-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti.

4.3. <http://www.soliq.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti.

4.4. <http://www.mf.uz>-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.

4.5. <http://www.nalog.ru>-Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti.

4.6. <http://www.stat.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.

4.7. <http://www.lex.uz>-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.